

MUSIQA TINGLASH VA TAHLIL QILISH MUSIQIY – NAZARIY BILIMLARNI O'ZLASHTIRISH KALITI

Odilov A. (SamDU katta o'qituvchisi)

Isomiddinov U. (SamDU magistranti)

Maqolada maktab o'quvchilarida musiqa faniga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish va uni tinglash va tahlil qilish hamda musiqani nazariyasini o'zlashtirish haqida fikr yuritilgan.

Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan «musiqa madaniyati» fanining o'ziga xos xususiyati shundaki, dars davomida olib boriladigan ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatlarni mustaqil jarayon ko'rinishida bo'lishi bilan birga, ular bir-biroi bilan uzviy bog'liq va aloqadorlikda bo'ladi. Bu esa, ushbu fanni o'qitilishining tabiiy qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Musiqiy faoliyatlarni – musiqa tinglash, jamoa bo'lib (xor bo'lib) qo'shiq kuylash, musiqa savodi, boshlang'ich sinflarda musiqaga ritmik harakatlar bajarish hamda bolalar cholg'u asboblari bilan jo'r bo'lish jarayonida o'quvchilarga mavzu doirasidagi musiqiy-nazariy bilim va tushunchalar beriladi, ularning amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning turli mavzu va janrlardagi bolalar dunyosiga mos, quvnoq musiqa asarlarini zavq-shavq bilan tinglash; bolalar cholg'ularida musiqaga jo'r bo'lishlari, o'z imkoniyatlariga mos qo'shiqlarni jamoa bo'lib ijro etishlari, ularda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishini tarbiyalash, musiqa madaniyatini shakllantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning eng muhim qismlaridir.

Musiqani faol ravishda tinglash o'quvchilarda o'ziga xos badiiy nafosat, estetik did va ijrochilik malakalarini rivojlanishiga kuchli ta'sir etadi. Musiqa tinglangandan so'nggi u haqdagi o'quvchining tahliliy suhbat, nazariy ma'lumotlarga beriladigan tushuncha, ta'rif, amaliy ko'rsatmalar juda katta ta'limiy va tarbiyaviy maqsad va vazifalarni bajarishi bilan, o'quvchilarda musiqiy obrazlilikni, ifodaviylikni, musiqa janrlari, asar badiiy mazmunini anglash, ongli idrok etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga olib keladi. Shuning uchun, musiqa darslarida o'qituvchi ushbu faoliyatga juda ehtiyotkorlik va ma'suliyat bilan yondoshgan holda ish tutmog'i lozim bo'ladi.

Musiqa tinglash faoliyati o'zining bajaradigan vazifasiga ko'ra, darsda yetakchi faoliyat hisoblanadi. Chunki, qo'shiq kuylash, musiqaga mos ritmik harakatlar bajarish, bolalar cholg'u asboblari bilan jo'r bo'lish va hatto musiqa savodi faoliyatida ham musiqiy asarlar avvalo tinglanadi. Musiqa asarlarini tinglash, tahlil qilish, kuylash va ongli idrok etish hissiy va ruhiy kechinmalar bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladigan murakkab pedagogik va psixologik jarayondir. Uning ta'sirida paydo bo'ladigan har qanday hissiy, badiiy-emosional kechinmalar ayniqsa, o'quvchi-yoshlar qalbida o'ziga xos olijanob tuyg'ularni o'yg'otadi., musiqaning sehrli olamiga yetklaydi va ularni hayotni anglashga, tushunishga, voqeya-hodisalarga o'z munosabatini bildirishga o'rgatadi.

«Inson faqat yoshlik yillaridagina ona tilini ham, musiqa madaniyati, savodini ham, kuy go'zalligini idrok etish, tushunish, his etish, zavqlanish qobiliyatini egallab oladi»¹ - deb yozadi mashhur rus pedagogi V.A.Suxomlinskiy. ...agar shu yoshlik chog'idanoq bola qalbiga musiqa go'zalligi ta'sir ettirilsa, agar bola musiqiy tovushlarda ifodalangan inson his-tuyg'ularini, uning ko'p qirrali ma'nolarini sezsa, u hych qanday o'zgarish bilan erishib bo'lmaydigan madaniyat cho'qqisiga ko'tariladi».

Musiqani tushunish, uning tarbiyaviy-ta'sirchan g'oyaviy-badiiy mazmunini his etishlari ko'p jihatdan o'qituvchining musiqa tinglash faoliyatini tashkil qilish mahorati, tajribasi, qo'llaniladigan ish usul, shakl, vositalariga bog'liq bo'ladi.

Bu o'rinda quyidagicha tavsiyalarimizni alohida ta'kidlab o'tishni o'rinli deb bilamiz:

1. Eng avvalo tinglash va kuylash uchun tanlanadigan asarlar repertuarining o'quvchilar yoshi, qiziqishi, uni idrok etish, tushunish ko'nikma va malakalarining rivojlanganlik darajasiga muvofiqlash, mavzu va asar xilma-xilligiga, g'oyaviy-badiiy mazmunini tarbiyaviy-ta'sirchanligiga e'tibor qaratish. Chunki, har qanday badiiy-musiqiy asarning ta'limiy va tarbiyaviy hamda pedagogik qiymati uning g'oyaviy – badiiy saviyasi bilan belgilanadi;

2. Asarlarni tanlashda uni dars mavzusi bilan bog'likligini inobatga olish va tahlil jarayonini shunga muvofiq rejalashtirish. Masalan, yakkanavozlik, jo'rnavozlik, musiqaning ifoda vositalari, ansambl, xor ijrochiligi, vokal-xor malakalari, musiqaning ommaviy janrlari, xalq qo'shiq va kuylari, nota yozuvi bilan bog'lash nazariy qoidalar darsni u yoki bu faoliyatida asosiy mavzular bo'lib kelishi mumkin.

3. Tahlil jarayonida o'quvchilarni asar haqida o'z taassurotlari, fikrlarini aytish, asar mazmunini, g'oyaviy – badiiy qiymatiga baho berish, xarakterli jihatlarni tahlil qilib borishlariga imkongiyat yaratish.

4. O'quvchilarning musiqani ongli idrok etish malakalarini shakllantirishga e'tiborni qaratish, har bir o'quvchining o'z sevimli musiqiy asarlar doirasini paydo qilish, ularni musiqa asarlari mualliflari haqida bilishga qiziqish va muhabbat uyg'ota borish.

5. Har xil mazmundagi, turli murakkablikdagi va janrlarda yozilgan, o'zbek, qordosh xalqlar hamda chet el musiqalari, shuningdek, ularning bastakor va kompozitorlari asarlari bilan tanishib borishlari, ya'ni, musiqiy zahira to'plashlariga erishish.

6. Tinglangan har bir musiqiy asar haqida o'quvchilarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish, o'quvchilarning ushbu jarayon faolligi, egallagan bilim, ko'nikma va malakalariga baho berish, rag'batlantirish, kelgusi mashg'ulotlarga nisbatan yanada ko'proq qiziqish, mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanishlariga rag'bat uyg'otish.

¹ В. А. Сухомлинский. «Изб. нар соч. В 3-х томов. Том 1. – Москва.: Просвещение, 1979 г.

Musiqa tinglash va tahlil qilish faoliyatini shunday tarzda tashkil qilish kerakki, shu jarayonda o'quvchilar tomonidan bilim va musiqiy nazariy tushunchalarni egallashlari uchun qulay imkoniyat yaratish, musiqa darslarini sifat va samaradorligini ta'minlashning eng qulay yo'lidir. O'qituvchi har bir dars jarayonida ta'kidlab o'tilgan mezonlarga muvofiq ish tutsa, o'quvchilarni musiqani idrok etish va uni tahlil qila olish darajalaridagi o'zgarishlarni kuzatib, bu faoliyatni yanada samarali usul va vositalarini topib, qo'llab borgan taqdirda asta-sekinlik bilan o'quvchilarda quyidagi ko'nikma va malakalar shakllanadi:

- musiqa asarini tinglash madaniyati;
- musiqa asarlarini tinglash orqali asar mazmuni va xarakterini anglash;
- musiqaning ifoda vositalari, janrlari, tembrlari, xalq, bastakor, kompozitorlik ijodiga mansubligi, mualliflari, mashhur ijrochilari haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish;
- asarlarni xor, orkestr uchun yozilganligi, xor asarlarini erkaklar, bolalar, ayollar, aralash xor ijrosi uchun mo'ljallanganligi, aniqlay olish;
- musiqani eshitib, milliy cholg'u sozlarini, cholg'u janrlarini anglash;
- musiqada o'zgarishlarni, xarakterni his qilish va unga mos harakatlarni bajarish;
- musiqiy asarga baho berish, o'z tushuncha va taassurotlarini ifoda etaolish (musiqiy badiiy did).

Albatta, har bir o'qituvchi har bir darsga muayyan darajada individual va ijodiy yondoshadi. Ayniqsa, musiqa darsi va musiqiy imkoniyatlarni tashkil qilishda o'zining, sinf o'quvchilarining imkoniyatlari va unga muvofiq shart-sharoitlarni hisobga oladi. Ammo o'quvchilarning musiqa asarlarini ongli idrok etishlari, musiqa tinglash va tahlil qilish jarayonida umummusiqiy va musiqiy-nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni egallab borishlariga erishish, ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishning eng muhim sharti va musiqa ta'limi va tarbiyasining bosh maqsadi ekanligini unutmagan holda har bir darsni va musiqiy faoliyatlarni qiziqarli va mazmunli tashkil qilish, ularda o'quvchilarni faol ishtirokini ta'minlash har bir musiqa o'qituvchisining birinchi darajadagi vazifasi hisoblanmog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi, - Toshkent., «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», Davlat ilmiy nashriyoti 2000 yil.
2. Soipova D. «Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi», o'quv qo'llanma, - Toshkent.: Fan va texnologiyalar nashriyoti., 2009 yil.
3. Кабалевский Д.Б. Как рассказывать детям о музыке? – Москва.: Просвещение., 1984 год.
4. Сухомлинский В.А. «Изб. нар соч. В 3-х томов. Том 1. – М.: Просвещение, 1979 г.
5. Hasanov A. «Musiqa va tarbiya». Toshkent.: «O'qituvchi» , 1993 yil

Муסיқа тинглаш ва таҳлил қилиш муסיқий – назарий билимларни ўзлаштириш калити

Одилов А. СамДУ катта ўқитувчиси
Исомиддинов У. СамДУ магистранти

Умумтаълим мактабларида ўқитиладиган «муסיқа маданияти» фанининг ўзига хос хусусияти шундаки, дарс давомида олиб бориладиган таълимий ва тарбиявий фаолиятлар мустиқил жараён кўринишида бўлиши билан бирга, улар бир-бири билан узвий боғлиқ ва алоқадорликда бўлади. Бу эса, ушбу фанни ўқитилишининг табиий қонуниятларидан келиб чиқади. Усиқий фаолиятлар – муסיқа тинглаш, жамоа бўлиб (хор бўлиб) кўшиқ куйлаш, муסיқа саводи, бошланғич синфларда муסיқага ритмик ҳаракатлар бажариш ҳамда болалар чолғу асбобларида жўр бўлиш жараёнида ўқувчиларга мавзу доирасидаги муסיқий-назарий билим ва тушунчалар берилади, уларнинг амалий ижрочилик кўникма ва малакалари шакллантирилади. Айниқса, бошланғич синфларда ўқувчиларнинг турли мавзу ва жанрлардаги болалар дунёсига мос, қувноқ муסיқа асарларини завқ-шавқ билан тинглаш; болалар чолғуларида муסיқага жўр бўлишлари, ўз имкониятларига мос кўшиқларни жамоа бўлиб ижро этишлари, уларда муסיқа санъатига бўлган қизиқишини тарбиялаш, муסיқа маданиятини шакллантириш бўйича амалга ошириладиган ишларнинг энг муҳим қисмларидир.

Муסיқани фаол равишда тинглаш ўқувчиларда ўзига хос бадий нафосат, эстетик дид ва ижрочилик малакаларини ривожланишига кучли таъсир этади. Муסיқа тинглангандан сўнгги у ҳақдаги ўқувчининг таҳлилий суҳбати, назарий маълумотларга бериладиган тушунча, таъриф, амалий кўрсатмалар жуда катта таълимий ва тарбиявий мақсад ва вазифаларни бажариши билан, ўқувчиларда муסיқий образлиликни, ифодавийликни, муסיқа жанрлари, асар бадий мазмунини англаш, онгли идрок этиш кўникма ва малакаларни шакллантиришга олиб келади. Шунинг учун, муסיқа дарсларида ўқитувчи ушбу фаолиятга жуда эҳтиёткорлик ва маъсулият билан ёндошган ҳолда иш тутмоғи лозим бўлади.

Муסיқа тинглаш **фаолияти** ўзининг бажарадиган вазифасига кўра, дарсда етакчи фаолият ҳисобланади. Чунки, кўшиқ куйлаш⁸, муסיқага мос ритмик ҳаракатлар бажариш, болалар чолғу асбобларида жўр бўлиш ва ҳатто муסיқа саводи фаолиятида ҳам муסיқий асарлар аввало тингланади. Муסיқа асарларини тинглаш, таҳлил қилиш, куйлаш ва онгли идрок этиш ҳиссий ва рухий кечинмалар билан боғлиқ равишда содир бўладиган мураккаб педагогик ва психологик жараёндир. Унинг таъсирида пайдо бўладиган ҳар қандай

ҳиссий, бадиий-эмоционал кечинмалар айниқса, ўқувчи-ёшлар қалбида ўзига хос олийжаноб туйғуларни ўйғотади., мусиқанинг сеҳрли оламига етклайди ва уларни ҳаётни англашга, тушунишга, воқеа-ҳодисаларга ўз муносабатини билдиришга ўргатади.

«Инсон фақат ёшлик йилларидагина она тилини ҳам, мусиқа маданияти, саводини ҳам, куй гўзаллигини идрок этиш, тушуниш, ҳис этиш, завқланиш қобилиятини эгаллаб олади»² - деб ёзади машҳур рус педагоги В.А.Сухомлинский. ...агар шу ёшлик чоғиданоқ бола қалбига мусиқа гўзаллиги таъсир эттирилса, агар бола мусиқий товушларда ифодаланган инсон ҳис-туйғуларини, унинг кўп қиррали маъноларини сезса, у ҳеч қандай ўзга **вашта** билан эришиб бўлмайдиган маданият чўққисига кўтарилади».

Мусиқани тушуниш, унинг тарбиявий-таъсирчан ғоявий-бадиий мазмунини ҳис этишлари кўп жиҳатдан ўқитувчининг мусиқа тинглаш фаолиятини ташкил қилиш маҳорати, тажрибаси, қўлланиладиган иш усул, шакл, воситаларига боғлиқ бўлади.

Бу ўринда қуйидагича тавсияларимизни алоҳида таъкидлаб ўтишни ўринли деб биламиз:

1. Энг аввало тинглаш ва куйлаш учун танланадиган асарлар репертуарининг ўқувчилар ёши, қизиқиши, уни идрок этиш, тушуниш кўникма ва малакаларининг ривожланганлик даражасига мувофиқлаш, мавзу ва асар хилма-хиллигига, ғоявий-бадиий мазмунини тарбиявий-таъсирчанлигига эътибор қаратиш. Чунки, ҳар қандай бадиий-мусиқий асарнинг таълимий ва тарбиявий ҳамда педагогик қиймати унинг ғоявий – бадиий савияси билан белгиланади;

2. Асарларни танлашда уни дарс мавзуси билан боғликлигини инобатга олиш ва таҳлил жараёнини шунга мувофиқ режалаштириш. Масалан, якканавозлик, жўрनावозлик, мусиқанинг ифода воситалари, ансамбль, хор ижрочилиги, вокал-хор малакалари, мусиқанинг оммавий жанрлари, халқ кўшиқ ва куйлари, нота ёзуви билан боғлаш назарий қоидалар дарсни у ёки бу фаолиятида асосий мавзулар бўлиб келиши мумкин.

3. Таҳлил жараёнида ўқувчиларни асар ҳақида ўз таассуротлари, фикларини айтиш, асар мазмунини, ғоявий – бадиий қийматига баҳо бериш, характерли жиҳатларини таҳлил қилиб боришларига имконият яратиш.

4. Ўқувчиларнинг мусиқани онгли идрок этиш малакаларини шакллантиришга эътиборни қаратиш, ҳар бир ўқувчининг ўз сеvimли мусиқий асарлар доирасини пайдо қилиш, уларни мусиқа асарлари муаллифлари ҳақида билишга қизиқиш ва муҳаббат уйғота бориш.

5. Ҳар хил мазмундаги, турли мураккабликдаги ва жанрларда ёзилган, ўзбек, қордош халқлар ҳамда чет эл мусиқалари, шунингдек, уларнинг бастакор ва композиторлари асарлари билан танишиб боришлари, яъни, мусиқий заҳира тўплашларига эришиш.

² В. А. Сухомлинский. «Изб. нар соч. В 3-х томов. Том 1. – Москва.: Просвещение, 1979 г.

6. Тингланган ҳар бир мусиқий асар ҳақида ўқувчиларнинг умумий таассуротлари юзасидан якуний хулоса чиқариш, ўқувчиларнинг ушбу жараён фаоллиги, эгаллаган билим, кўникма ва малакаларига баҳо бериш, рағбатлантириш, келгуси машғулотларга нисбатан янада кўпроқ қизиқиш, мустақил фикр юритиш, ижодий изланишларига рағбат уйғотиш.

Мусиқа тинглаш ва таҳлил қилиш фаолиятини шундай тарзда ташкил қилиш керакки, шу жараёнда ўқувчилар томонидан билим ва мусиқий назарий тушунчаларни эгаллашлари учун қулай имконият яратиш, мусиқа дарсларини сифат ва самарадорлигини таъминлашнинг энг қулай йўлидир. Ўқитувчи ҳар бир дарс жараёнида таъкидлаб ўтилган мезонларга мувофиқ иш тутса, ўқувчиларни мусиқани идрок этиш ва уни таҳлил қила олиш даражаларидаги ўзгаришларни кузатиб, бу фаолиятни янада самарали усул ва воситаларини топиб, қўллаб борган тақдирда аста-секинлик билан ўқувчиларда қуйидаги кўникма ва малакалар шаклланади:

- мусиқа асарини тинглаш маданияти;
- мусиқа асарларини тинглаш орқали асар мазмуни ва характерини англаш;
- мусиқанинг ифода воситалари, жанрлари, тембрлари, халқ бастакор, композиторлик ижодига мансублиги, муаллифлари, машхур ижрочилари ҳақидаги маълумотларни ўзлаштириш;
- асарларни хор, оркестр учун ёзилганлиги, хор асарларини эркаклар, болалар, аёллар, аралаш хор ижроси учун мўлжалланганлиги, аниқлай олиш;
- мусиқани эшитиб, миллий чолғу созларини, чолғу жанрларини англаш;
- мусиқада ўзгаришларни, характерни ҳис қилиш ва унга мос ҳаракатларни бажариш;
- мусиқий асарга баҳо бериш, ўз тушунча ва таассуротларини ифода этаолиш (мусиқий бадиий дид).

Албатта, ҳар бир ўқитувчи ҳар бир дарсга муайян даражада индивидуал ва **ижодий** ёндошади. Айниқса, мусиқа дарси ва мусиқий имкониятларни ташкил қилишда ўзининг, синф ўқувчиларининг имкониятлари ва унга мувофиқ шарт-шароитларни ҳисобга олади. Аммо ўқувчиларнинг мусиқа асарларини онгли идрок этишлари, мусиқа тинглаш ва таҳлил қилиш жараёнида умуммусиқий ва мусиқий-назарий билим, кўникма ва малакаларни эгаллаб боришларига эришиш, уларда мусиқа маданиятини таркиб топтиришнинг энг муҳим шарти ва мусиқа таълими ва тарбиясининг бош мақсади эканлигини унутмаган ҳолда ҳар бир дарсни ва мусиқий фаолиятларни қизиқарли ва мазмунли ташкил қилиш, уларда ўқувчиларни фаол иштирокини таъминлаш ҳар бир мусиқа ўқитувчисининг биринчи даражадаги вазифаси ҳисобланмоғи керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Баркамол авлод орзуси, - Тошкент., «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», Давлат илмий нашриёти 2000 йил.
2. Соипова Д. «Мусиқа ўқитиш назарияси ва методикаси», ўқув қўлланма, - Тошкент.: Фан ва технологиялар нашриёти., 2009 йил.

3. Кабалевский Д.Б. Как рассказывать детям о музыке? – Москва.: Просвещение, 1984 год.

4. Сухомлинский В.А. «Изб. нар соч. В 3-х томов. Том 1. – М.: Просвещение, 1979 г.

5. Ҳасанов А. «Музыка ва тарбия». Тошкент.: «Ўқитувчи», 1993 йил